



AXBOROT RESURSLARI TURLARI VA ULARNING MUAMMOLARI

Muallif: Sofoyeva Fotima Davlatyorovna¹

Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik Universitetining assistent o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17355912>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb mavzulardan biri axborot resurs turlari bilan ishlash to'plash qayt ishlash va uzatish foydalanish Shu bilan birga qidiruv tizimlarida axborot ma'lumotlarini olish uchun himoyalash uchun muhim tavsiya va maslahatlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axborot xizmatlari, aloqa operatorlari, moddiy resurslar, tabiiy resurslar, axborot zaxiralari, axborot - kommunikatsiya texnologiyalari axborot resurslari.

KIRISH

Har qanday bozor kabi axborot bozorida ham xaridorlar va sotuvchilar mavjud bo'ladi. Axborot iste'molchilari – jismoniy shaxslar, tashkilotlar, xukumat organlari va xokazo. Axborot xizmatlari – axborot bozoridagi alohida tovar turi bo'lib hisoblanadi. Masalan, kutubxona xizmatchilari tomonidan mijozlar buyurtmsi bo'yicha konkret mavzudagi adabiyot yoki boshqa turdagi materialni to'plash kabi xizmatlar.

Axborot xizmatlarini faqat kutubxonalargina ko'rsatmaydilar. Ko'pgina davlatlarda turli bilin sohalari bo'yicha ilmiy-texnikaviy axborotlarni qayta ishlovchi institutlar mavjud bo'lib, to'plangan ma'lumotlar bo'yicha obzorlar, referatlar, ma'lumotnomalar tayyorlaydilar. Biznes sohasidagi axborot xizmatlariga ma'lum mavzu bo'yicha axborotlarni taqdim etish, konkret masala bo'yicha maslahat berish va boshqalar kiradi.

ASOSIY QISM

Kommunikatsiya sohasida aloqa operatorlari, Internet provayderlar xizmat ko'rsatadi. Axborot xizmatlari sohasining rivojlanish darajasi jamiyat axborotlashuvi darajasini belgilaydi. Axborot tovarlari va xizmatlari bozori bir necha rivojlanish bosqichlarini o'tadi. Bozorning shakllanish bosqichi XX asrning 50- yillariga to'g'ri keladi. 80- yillarga kelib gullab-yashnash bosqichiga o'tdi. Jaxon axborot tovarlari va xizmatlari bozorida AQSh, Yaponiya, Angliya, Fransiya va boshqa G'arbiy Evropa davlatlari asosiy rol o'ynaydi.

Resurs – ma'lum shakllantirish yordamida kutilgan natijalarga erishish imkonini beruvchi shart – sharoitda u yoki bu faoliyatni amalga oshirish mumkinligining miqdoriy ko'rsatkichi. Mamlakat milliy iqtisodiyotining har qanday tarmog'i tahlil etilayotganida uning moddiy, tabiiy, mehnat, moliyaviy, energetik resurslarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu tushuncha iqtisodiy kategoriya sanaladi.

Moddiy resurslar jamiyat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan mehnat va xomashyolar majmuidir. Masalan, xomashyo,

materiallar, yoqilg'i, energiya, yarim tayyor mahsulotlar, detallar va hokozo.

Tabiiy resurslar insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun jamiyat tomonidan foydalaniladigan obyektlar, jarayonlar hamda tabiiy sharoitlardir.

Mehnat resurslari jamiyatda ishlash uchun umumta'lim bilimga ega kishilar.

Moliyaviy resurslar davlat yoki tijorat tarkibi ixtiyorida pul manbalaridir.

Energetik resurslar energiya omillari: ko'mir, neft, neft mahsulotlari, gaz, gidroenergiya, elektroenergiya va hokazo.

Shuni qayd etish lozimki, har qanday ko'lamdagi tashkilotning kerakli darajada ishlashi uchun faqat ushbu resurslarning o'zi yetarli emas, chunki ishlab chiqarish uchun moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari mavjudligining o'zi kifoya qilinmaydi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni ma'lumotlarning ulkan oqimida axborotlarni ko'rib chiqish, tahlil etish va oqilona foydalanishni ko'zda tutadi.

Uni qanday ishlatishni bilish, bu sohadagi texnologiyalar haqida ko'plab axborotga ham ega bo'lish talab etiladi. Shu bois ham axborot, axborot resurslari hozirgi kunda alohida iqtisodiy kategoriya sifatida qabul qilinmoqda.

Axborot resurslari, ommaviy axborot va axborot tizimlariga O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda 560-II son "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga binoan quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Axborot resurslari alohida hujjatlar, hujjatlarning alohida to'plamlari, axborot tizimlaridagi (kutubxonalardagi, arxivlardagi, fondlardagi, ma'lumotlar banklaridagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to'plamlari.

Ommaviy axborot – bunga cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar kiradi.

Axborot tizimi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari. Agar axborot resurslari oqilona tashkil etilsa va o'rinli foydalanilsa, u mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida ishtirok etishi mumkin.

Axborot zaxiralari – alohida hujjat, hujjatlar to'plami hamda axborot tizimlari (kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banklari, turli axborot tizimlari)dagi hujjatlar to'plamidir.

Jamiyatni axborotlashtirish – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy iqtisodiy va ilmiy - texnikaviy jarayonidir. Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni quyidagi qator muammolarning hal etilishini talab etadi:

1. Hisoblash texnikasi vositalarini jamiyat faoliyatining barcha tarmoqlariga tadbiq qilish.

2. Jamiyat a'zolarini hisoblash texnikasi vositalaridan samarali foydalanishga o'rgatish.

3. Jamiyat a'zolarining turli xil ehtiyojlarini qondirishda axborot resurslaridan to'la va samarali foydalanishlarini ta'minlash.

Jamiyatni axborotlashtirishda axborot zaxiralari muhim rol o'ynaydi. Uni talqin etish va muhokama qilish axborotlashgan jamiyatga o'tish davri haqida gap borgan davrdan davom etib keladi. Bu masala bo'yicha ko'plab nashrlar e'lon qilingan, ularda turli fikrlar, tushunchalar o'z aksini topgan.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni ma'lumotlarning ulkan oqimida axborotlarni ko'rib chiqish, tahlil etish va oqilona foydalanishni ko'zda tutadi. Axborotlarni tanlash ancha mehnat talab qiladigan, ya'ni qimmat turadigan jarayondir.

Hozirgi kunda axborot resurslari murakkab va ko'pqirrali obyekt sifatida namoyon bo'lib, uni quyidagi parametrlar bilan izohlash mumkin:

- o axborotlarning mazmuni;
- o axborotga bo'lgan mulkchilik shakli: jamoatchilik mulki, davlat mulki, jamoa tashkilotlari mulki, yuridik shaxs mulki, jismoniy shaxs mulki;
- o axborotlarga kirish imkoniyatlari: ochiq, yopiq, maxfiy, tijorat siri, xizmat siri, kasbiy sir;
- o axborotlarni taqdim etish shakllari: matn hujjatlari, obzorlar, tarkiblashtirilgan ma'lumotlar – ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar banki.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni ma'lumotlarning ulkan oqimida axborotlarni ko'rib chiqish, tahlil etish va oqilona foydalanishni ko'zda tutadi. Axborotlarni tanlash ancha mehnat talab qiladigan, ya'ni qimmat turadigan jarayondir.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari axborot resurslarini shakllan-tirish va ulardan foydalanish jarayonlarini tubdan o'zgartirib yuborib, quyidagilarni ta'minlamoqda:

- katta hajmdagi axborotlarni ixcham holatda saqlash;
- axborotlarni tezkor izlab topish;
- uzoq masofada joylashgan resurslarga kirish imkoniyati;
- bitta axborot tashuvchisida turli axborotlarni saqlash;
- bibliografik va to'liq matnli ma'lumotlar bazalarini umumlashtirish;
- faktografik va bibliografik axborotlarni o'zida saqlovchi ma'lumotlar omborining paydo bo'lishi.

Axborotli jarayonlarning sanoat asosiga o'tishi axborot sohasining rivojlanishini jadallashtirmoqda, dasturiy texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish esa uni biznesning istiqbolli turlaridan biriga aylantirmoqda. Bularga xorijiy mamlakatlardan kompyuter texnikasi va dasturiy vositalarining yetkazib berilishi, ichki kompyuter bozorining vujudga kelishiga ko'maklashmoqda.

XULOSA

Mazkur tezis ishida axborot resurslarining himoyalanganligini baholash uslubiyatlarini ishlab chiqish bo'yicha qo'yilgan vazifalar bajarildi va quyidagi natijalar olindi:

Axborot resurslarini himoyalanganlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar o'rganildi. Axborot tizimi resurslari va ularning asosiy turlari nomli rejada resurs turlari, axborot tizimi resurslari tahlili keltirildi. Bundan tashqari jamiyatni axborotlashtirish, axborot zahiralari, hamda jamiyatni axborotlashtirishda bir qator mavjud muammolar hal etilishi aniqlandi. Milliy va oliy o'quv yurti axborot resurslari qiyosiy tahlili va tashkilotning axborot resurslarini shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "2022 – 2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.01.2022 yildagi PF-60 sonli O'zbekiston Respublikasi

2. To'rayeva, G.H., Fayziyeva D.H. / [Matn]: o'quv qo'llanma - Buxoro : "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 156 b.
3. Tahirov, B.N. Axborot xavfsizligi asoslari [Matn] : o'quv qo'llanma / Fan va ta'lim, 2022.-156 b.

